



**WORLD BULLETIN
PUBLISHING**

Online Publishing Hub

World Bulletin of Education and Learning (WBEL)

ISSN (E): 3072-175X

Volume 2, Issue 5, May 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://worldbulletin.org/index.php/1>

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING KNOWLEDGE ABOUT THE LAWS OF THE HISTORICAL PROCESS IN FUTURE HISTORY TEACHERS BASED ON A HERMENEUTIC APPROACH

Abdullajanova N. T.

Associate Professor, Acting Namangan Regional PMM Department of
Socio-economic Sciences and Languages Teaching Methodology

Abstract

This article examines the theoretical and practical aspects of developing future history teachers' knowledge about the laws of historical processes through a hermeneutic approach. The study analyzes the role of hermeneutic methodology in understanding and interpreting historical reality, the stages of educational process design, and the system of problem-based questions used in seminar classes. The pedagogical mechanisms for developing historical thinking, historical consciousness, and understanding of historical truth among students are substantiated. The findings demonstrate that the hermeneutic approach is an effective tool for enhancing the professional competence of future history teachers.

Keywords: Hermeneutics, history education, historical thinking, historical process, pedagogical technologies, professional competence, historical truth, instructional design.

Introduction

GERMENEVTIK YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK TARIX O‘QITUVCHILARIDA TARIXIY JARAYON QONUNIYATLARIGA DOIR BILIMLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

ABDULLAJANOVA N.T.

Namangan viloyati PMM Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar va tillarni
o‘qitish metodikasi kafedrasida dots. v.b.



Annotatsiya

Mazkur maqolada hermenevtik yondashuv asosida bo'lajak tarix o'qituvchilarida tarixiy jarayon qonuniyatlariga doir bilimlarni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda tarixiy voqelikni tushunish va talqin qilish jarayonida hermenevtik metodologiyaning o'rni, ta'lim jarayonini loyihalash bosqichlari hamda seminar mashg'ulotlarida qo'llaniladigan muammoli savollar tizimi yoritilgan. Shuningdek, talabalarda tarixiy tafakkur, tarixiy ong va tarixiy haqiqatni anglash ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik mexanizmlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari hermenevtik yondashuvning bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda samarali vosita ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: hermenevtika, tarix ta'limi, tarixiy tafakkur, tarixiy jarayon, pedagogik texnologiyalar, kasbiy kompetentlik, tarixiy haqiqat, ta'limni loyihalash.

Аннотация

В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты развития знаний о закономерностях исторического процесса у будущих учителей истории на основе герменевтического подхода. Проанализированы роль герменевтической методологии в понимании и интерпретации исторической реальности, этапы проектирования образовательного процесса и система проблемных вопросов, используемых на семинарских занятиях. Обоснованы педагогические механизмы формирования исторического мышления, исторического сознания и понимания исторической истины у студентов. Результаты исследования показывают эффективность герменевтического подхода в развитии профессиональной компетентности будущих учителей истории.

Ключевые слова: герменевтика, историческое образование, историческое мышление, исторический процесс, педагогические технологии, профессиональная компетентность, историческая истина, проектирование обучения.

 WORLD BULLETIN PUBLISHING Online Publishing Hub	World Bulletin of Education and Learning (WBEL)
ISSN (E): 3072-175X	Volume 2, Issue 5, May 2026
	This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution
https://worldbulletin.org/index.php/1	

Kirish (Introduction)

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Globallashuv, axborot oqimining keskin ortishi hamda tarixiy voqealarning turlicha talqin qilinishi sharoitida talabalarni tarixiy haqiqatni ilmiy asosda anglashga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi [1]. Shu nuqtai nazardan, tarixiy jarayonlarni tushunish va izohlashga qaratilgan hermenevtik yondashuv tarix ta'limining metodologik asoslaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda [2].

Germenevtika tarixiy matnlar, voqealar va hodisalarni tushunish hamda talqin qilish nazariyasi sifatida tarixiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi [3]. Mazkur yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarning tarixiy voqelikni chuqur anglashiga, tanqidiy va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon yaratadi.

Maqolaning maqsadi – hermenevtik yondashuv asosida bo'lajak tarix o'qituvchilarida tarixiy jarayon qonuniyatlariga doir bilimlarni rivojlantirishning pedagogik asoslarini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi (Methods).

Tadqiqot davomida ilmiy bilishning nazariy va empirik metodlaridan foydalanildi. Jumladan:

- pedagogik kuzatish;
- ilmiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish;
- tizimli va hermenevtik tahlil;
- pedagogik loyihalash;
- seminar mashg'ulotlarini modellashtirish metodlari qo'llanildi.

Tadqiqot obyekti sifatida oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bo'lajak tarix o'qituvchilari tanlandi.

Tadqiqot jarayonida "Germenevtik tarix metodologiyasi" fanini o'qitish bo'yicha ishlab chiqilgan o'quv mashg'ulotlari loyihalari tahlil qilindi. O'quv mashg'ulotlarini loyihalash quyidagi bosqichlar asosida tashkil etildi:

1. Fan dasturini o'rganish.
2. Ta'lim maqsad va vazifalarini belgilash.



3. O'quv mazmunini ishlab chiqish.
4. Vaqt taqsimotini aniqlash.
5. Metod va texnologiyalarni tanlash.
6. AKT vositalarini integratsiyalash.
7. Mashq va topshiriqlar tizimini yaratish.
8. O'quv mashg'uloti ssenariysini ishlab chiqish.
9. Elektron nazorat tizimini tashkil etish.

Natijalar (Results)

Tarix o'qitish metodikasiga kiritilgan o'zgartirishlar tufayli talabalarning tarix to'g'risidagi eski tasavvurlari (ya'ni qadim o'tmishda bo'lgan voqealar, hozirgi kundagi voqealarga hech qanda aloqasi yo'qday tasavvur qilinishi) o'rniga tarixga fan sifatida qarash hamda o'rganilayotgan predmet sifatida ijobiy munosabat paydo bo'ladi. Talabalarning ko'pchiligi tarixni "bugungi hayotning muammolarini anglash uchun zarur bo'lgan zamonaviy hayotning asosi", o'z hayotini davom etayotgan tarixiy o'zgarishlar sharoitida idrok etish vositasi hamda xatolari hamda o'zgaralar muvaffaqiyatlaridan saboq olish imkoniyati deb tushuna boshlaydilar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bo'lajak tarix o'qituvchilarida tarixiy jarayon qonuniyatlariga doir bilimlarni rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan tizimni samarali amalga oshirish uch darajali tuzilmaga ega bo'lgan texnologiyani joriy etish bilan amalga oshiriladi. Har bir daraja bo'lajak tarix o'qituvchilarida tarixiy jarayon qonuniyatlariga doir bilimlarni rivojlantirishning an'anaviy va innovatsion usullari (shakllari, vositalari)ni pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq kombinatsiyasi bilan tavsiflanadi.

Texnologiyalarning birinchi darajasi - bu innovatsion va an'anaviy usullarning muvozanatli aralashmasi hisoblanadi. Ikkinchi darajada innovatsion usullar ustunlik qiladi. Uchinchi daraja faqat innovatsion texnologiyalarni qo'llash bilan tavsiflanadi.

O'rganish jarayonida germeneytik yondashuvga asoslangan tarix ta'limi tizimi asoslandi, bu uchta blokning kiritilishi bilan ta'minlanadi: pedagogik vazifalar bloki, metodlarni shakllantirish bloki va tarixiy jarayon qonuniyatlariga doir bilimlarni rivojlantirish shart-sharoitlari bloki.



**WORLD BULLETIN
PUBLISHING**

Online Publishing Hub

World Bulletin of Education and Learning (WBEL)

ISSN (E): 3072-175X

Volume 2, Issue 5, May 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://worldbulletin.org/index.php/1>

Eksperimentning yakuniy (nazorat) bosqichi ma'lumotlarini mezonlarga muvofiq tahlil qilish quyidagi natijalarni ko'rsatdi (sifatli):

Kognitiv-intellektual mezonga ko'ra: tarix fanlari, ijtimoiy jarayonlar va madaniy hodisalarning umumiy va professional ufqlari, axborot va ijtimoiy-madaniy sohasi kengaytirildi; faktlar yaxshiroq tizimlashtira boshlandi, turli xil tarixiy davrlarning xususiyatlarini tushunila boshlandi, ushbu davrlar madaniyati haqidagi bilimlari kengaytirildi; o'z nuqtai nazarini shakllantira oldilar, tarixiy jarayonlarning qonuniyatlarini tushuna boshladilar, xulosa chiqarishni o'rgandilar; tarixdagi siyosiy, fuqarolik va ijtimoiy omillarning o'zaro bog'liqligini chuqurroq tushuna boshladilar; tarixiy faktlar va voqealarni ahamiyati hamda o'tmish va hozirgi zamonning iqtisodiy, siyosiy va madaniy muammolari bilan o'zaro bog'liqligi jihatlarini yanada muvaffaqiyatli farqlay olishadi; tarixiy va tarixiy-ilmiy, tarixiy-adabiy manbalarni, matnlarni tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirdilar.

Dunyoqarash mezoniga ko'ra: ularda o'zlarining ijtimoiy-madaniy rivojlanishidagi "oq dog'lar" ni aniqlashi hamda o'z tarixiy, siyosiy va madaniy ufqlarini kengaytirish istagining paydo bo'lishi; O'zbekiston tarixi va madaniyatini fuqarolik-vatanparvarlik pozitsiyasida anglashi va baholashi; tarixiy o'tmish va hozirgi zamonning qadr-qimmatini, ularning yodgorliklar, moddiy va ma'naviy madaniyatda aks etishini tushunishi.

Qadriyatli-motivatsion mezonga ko'ra: O'zbekiston va dunyodagi siyosiy va madaniy voqealar hamda tarix predmetiga qiziqishni oshirish; o'quv faoliyatida yetakchi motivi zachyot yoki imtihonni topshirish bo'lgan talabalar sonini kamaytirish; predmetga munosabatni o'zgartirish – tarixga ko'p o'lchovli jarayon sifatida qarab, uning global, milliy va shaxsiy (oila tarixi, avlodlar almashinuvi) mohiyatini ko'rib chiqish; tirishqoqlik, qiziquvchanlik, tadqiqotga qiziqishning rivojlanishidagi ijobiy dinamika.

Faoliyatli (jarayonli)-uslubiy mezonga ko'ra: o'quv jarayonini faollashtirish, maktabda tarix fanini o'qitish bo'yicha metodik tayyorgarlikni takomillashtirish; o'zining o'quv tajribalarini moslashtirish qobiliyatini rivojlantirish, maktabda foydalanish maqsadida innovatsion texnologiyalarda qatnashish; tarixni o'qitishning yangi usullari, texnologiyalari va texnikalarini o'qitish amaliyoti davomida faollashtirish; munozaralar paytida o'z fikrini



**WORLD BULLETIN
PUBLISHING**

Online Publishing Hub

World Bulletin of Education and Learning (WBEL)

ISSN (E): 3072-175X

Volume 2, Issue 5, May 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://worldbulletin.org/index.php/1>

shakllantirish va himoya qilishga bo‘lgan ishonchni oshirish, yanada ishonchli dalillar, qarama-qarshi yoki g‘ayrioddiy (noodatiy) qarashlarga nisbatan bag‘rikenglik.

Individual ta‘lim trayektoriyalarini ta‘minlash va ta‘lim mazmunidagi differentsiasiyani ta‘minlash hamda uni boshqarish asosida tarix bo‘yicha akademik ko‘rsatkichlar darajasi oshdi.

Mustaqil ishlash sohasida tadqiqot metodlari va universal o‘quv harakatlari (UO‘H) ulushi ortdi: talabalar shaxsiy yutuqlarni qayd etdilar – “men o‘z ishimi rejalashtirishni o‘rgandim”, “men taqdimot qilishni yoqtiraman, sababi material hamma uchun tushunarli bo‘ladi”, “men guruhni boshqarishni yaxshi ko‘raman, chunki boshqalardan ko‘ra ko‘proq bilishim kerak”. Turli mazmundagi ma‘lumot, uning taqdimot shakli, yetkazib berilishi, kelib chiqish manbasi ustida ishlash ta‘lim jarayonini kompetentlik va ijtimoiy-madaniy yo‘naltirilgan texnologiyalar asosida qurishni taqozo qildi, natijada, talabalar tomonidan tanqidiy tafakkur hamda ta‘limning loyiha metodlari o‘zlashtirib olindi.

Amaldagi texnologiyalarni qo‘llash quyidagi natijalarga erishishga yordam berdi:

-o‘qitishning yuqori darajadagi farqlanishining ta‘minlanishi (deyarli individuallashtirilgan);

- darsda bajariladigan ishlar hajmini oshirish;

- bilimlarni nazorat qilishni takomillashtirish;

- ilmiy-tadqiqot faoliyatida talabalar uchun qulay bo‘lgan malakalarni shakllantirish;

- ma‘lumotnomalar va elektron tizimlar, elektron kutubxonalar va boshqa axborot resurslari bilan tanishish, ulardan o‘quv faoliyatida foydalanish;

- mustaqil ish uslublarini samarali va ijodiy faoliyat darajalarida muvaffaqiyatli qo‘llaydigan talabalar sonini ko‘paytirish;

- predmet bo‘yicha bilimlar sohasidagi kasbiy o‘sish yo‘nalishlarini chuqurlashtirish, o‘qitish va tarbiyalashga yondashuvlarini ishlab chiqish va qo‘llash; har tomonlama chuqur bilimlarni, turli xil zamonaviy texnikalarni egallashni talab qiladigan tarix fani va predmetining murakkabligi, ko‘p qirraliligini anglash; ijtimoiy-madaniy sharoitlarga muvofiq uzluksiz va



mustaqil ta'lim jarayonlarida professional o'sish istiqbollarini aniqlash; materialning talabalar tomonidan mustaqil ravishda tanlashdagi katta ulushi, ularning yanada mustahkamroq, chuqurroq o'zlashtirish va tushunishlariga imkon beradi; ijtimoiy va pedagogik voqelikning faktlari va hodisalariga nisbatan aniqroq, ayrim hollarda esa prinsipial yangi munosabatni shakllantirish; o'zlarining umumiy madaniy rivojlanishining kuchli va zaif tomonlarini, aloqa usullarini, ixtisoslashuvlarini, ijtimoiylashuvlarini aniqlash.

Muhokama (Discussion)

Olingan natijalar hermenevtik yondashuvning tarix ta'limidagi samaradorligini tasdiqlaydi. Hermenevtika nafaqat tarixiy manbalarni o'qish va tushunish metodologiyasi, balki talabalarda tarixiy tafakkurni shakllantirish vositasi sifatida ham muhim ahamiyatga ega [4].

Tadqiqot natijalari H.-G. Gadamer, V. Dilthey va P. Rikyorlarning hermenevtik konsepsiyalari bilan uyg'unlikda bo'lib, tarixiy bilish jarayonida tushunish va talqin qilishning ustuvor ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi [5].

Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan integratsiyalashgan hermenevtik yondashuv talabalarning mustaqil fikrlash, tarixiy hodisalarga tanqidiy baho berish va ilmiy xulosalar chiqarish kompetensiyalarini rivojlantirish imkonini beradi [6].

Xulosa (Conclusion)

Hermenevtik yondashuv asosida bo'lajak tarix o'qituvchilarida tarixiy jarayon qonuniyatlariga doir bilimlarni rivojlantirish tarix ta'limining samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Mazkur yondashuv tarixiy voqelikni tushunish, talqin qilish va tarixiy haqiqatni anglash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Hermenevtik yondashuv tarixiy tafakkurni rivojlantirishning samarali vositasidir.
2. O'quv mashg'ulotlarini bosqichma-bosqich loyihalash ta'lim sifatini oshiradi.

 WORLD BULLETIN PUBLISHING Online Publishing Hub	World Bulletin of Education and Learning (WBEL)
ISSN (E): 3072-175X	Volume 2, Issue 5, May 2026
	This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution
https://worldbulletin.org/index.php/1	

3. Muammoli ta'lim va munozara metodlari tarixiy jarayon qonuniyatlarini chuqur o'zlashtirishga xizmat qiladi.
4. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirilgan germeneytik ta'lim bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dilthey W. Introduction to the Human Sciences. Princeton University Press, 1989.
2. Gadamer H.-G. Truth and Method. London: Continuum, 2004.
3. Ricoeur P. Interpretation Theory: Discourse and the Surplus of Meaning. Texas Christian University Press, 1976.
4. Toshpulatov Y., Hasanboyeva O. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
5. Saidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2019.
6. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2017.
7. Ismoilov A. Tarix o'qitish metodikasi. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2021.
8. Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – Toshkent: Sharq, 1998.
9. Ziyomuhamedov B. Pedagogik mahorat asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
10. Xodjayev B. Umumiy pedagogika. – Toshkent: Sano-standart, 2022.